

O'ZBEKISTONDA TURIZM RIVOJLANISHINING ISTIQBOLLARI VA MUAMMOLARI

Ergasheva Robiya

Kamoliddin Behzod nomidagi

Milliy rassomlik va dizayn instituti

1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada turizm rivojlanishining istiqbollari tahlil qilingan. Turizmning iqtisodiyotga ta'siri, infratuzilmani rivojlantirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va barqaror turizm kontseptsiyalari asosiy yo'nalishlar sifatida ko'rib chiqilgan. Shuningdek, turizmni kelgusi rivojlantirish uchun raqamlashtirish, infratuzilmani takomillashtirish va mahalliy brendlarni qo'llab-quvvatlash muhim ekani ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: Turizm infratuzilma, raqamlashtirish, inovatsion texnologiyalar, YuNESKO, madaniy meros, Registon maydoni

Turizm jahon iqtisodiyotining eng tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. U nafaqat mamlakatning iqtisodiy o'sishiga hissa qo'shadi, balki madaniy aloqalarni rivojlantirish, yangi ish o'rinlari yaratish va infratuzilmani yaxshilashda ham muhim rol o'ynaydi. Mamlakatlarda turizmning rivojlanishi bir qator omillarga bog'liq bo'lib, bu jarayonda iqtisodiy, ijtimoiy va ekologiyaviy masalalar ham muhim ahamiyatga ega. Har bir davlat bor ekan uning o'z e'tiqodi, ma'naviyati va ma'daniyati bo'lishi bu tabiiy hol, albatta. Shunday ekan, har bir davlatning o'z rivojlanish strategiyalari ham bo'lishi bu uning yuksalish sari qadam bosa olishidan dalolatdir. Rivojlanish uchun juda ko'plab yo'llar va strategiyalar bor albatta, bulardan biri esa bu – Turizmdir. Yani har bir davlat turizm orqali o'zini har tomonlama rivojlantirib, dunyo miqyosida tanilgan va tan olingan davlat bo'la olishi mumkin. Hozirgi paytida bugungi globallashuv sharoitida turizm sohasi iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlaridan biriga aylanmoqda. Turizm sohasining rivojlanishi o'z navbatida turizmga turdosh bo'lgan bir nechta sohalarning

rivojlanishiga sabab bo'ladi. Ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatga tashrif buyurgan har 20 ta turist 1 ta bevosita turizm sohasida va 2 ta turizmga bog'liq bo'lgan iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida yangi ishchi o'rinlarining ochilishiga yordam beradi. Dunyoda ish bilan band aholining har o'ninchisi ushbu sohada faoliyat yuritmoqda.

Rasmiy statistik ma'lumotlar turizm sohasining yaqin besh yillar ichida sayyohlar oshib borishi bilan mamlakat iqtisodiyotida yetakchi o'rinlarni egallab kelayotganligini isbotlamoqda. 2023-yil hisobi bo'yicha taxminan 7 millionta sayyohlar yurtimizga turli maqsadlarda tashrif buyurishdi. Bu ko'rsatkichni 2024-yil uchun prognoz natijalariga ko'ra, sayyohlar sonini 10 milliontaga oshirish belgilandi. O'zbekiston-2030" strategiyasida turizm sohasini rivojlantirishga qaratilgan bir qancha maqsad va vazifalar belgilangan. Jumladan, 2030-yilga qadar xorijiy sayyohlar sonini 15 million nafarga, ichki sayyohlar sonini 25 million nafarga, ziyorat turizmi bo'yicha keladigan sayyohlar sonini 3 million nafarga yetkazish ko'zda tutilgan. Shuningdek, xususiy investitsiyalarni jalb qilish hisobiga respublikada mehmonlar uchun mo'ljallangan o'rinlar sonini kamida 2 barobar oshirish, turizm mahallalari sonini 175 taga, turizm xizmatlari eksportini 5 milliard dollarga, tibbiyot va ta'lim turizmi eksportini yiliga 1,5 milliard dollarga yetkazish belgilangan. "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"ning Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash bobi, 35-maqсадida "O'zbekiston bo'ylab sayohat qiling" dasturi doirasida mahalliy sayyohlar sonini 12 million nafardan oshirish hamda respublikaga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar sonini 9 million nafarga yetkazish belgilangan bo'lib, bu asosida:

- to'siqsiz turizm infratuzilmasini mamlakatning asosiy turizm shaharlarida keng joriy qilish. 2026-yilgacha turizm sohasida band bo'lgan aholi sonini 2 baravar oshirib, 520 ming nafarga yetkazish;
- turizm va madaniy meros obyektlari infratuzilmasini rivojlantirish hamda 8 mingdan ortiq madaniy meros obyektlaridan samarali foydalanish bo'yicha davlat dasturini qabul qilish;
- Samarqandni "Turizm darvozasi"ga aylantirish orqali kelgusi besh yilda turizm xizmatlari hajmini kamida 10 baravarga oshirish. Turizm sohasida 40 ming kishi

bandligini ta'minlash. 2022-yilda "Abadiy shahar" tarixiy majmuasini o'z ichiga olgan Samarqand turizm markazini va zaruriy infratuzilmani tashkil etish;

Bugungi kunda turizmni rivojlantirish uchun juda ko'plab, sharoitlar va imkoniyatlar bor yani biz turizmni kino sohasi orqali ham rivojlantira olishimiz mumkun. Masalan, chet davlatlar film yoki seryallarini ko'rsak doimo u qanday mavzuda drama, kamediya yoki tarixiy mavzuda bo'lishidan qat'iy nazar albatta, o'z davlatini tabiatini, tarixiy obidalarini shuningdek, milliy urf odatlarini kadrlar orqali ko'rsatib, berishadi. Yani tomoshabinni qiziqтира olishadi va o'zi bilmagan holda o'sha davlatga borish hohishini uyg'otishadi. Inson o'sha kadrlar orqali shu davlatga sayohat qilishni hohlab qoladi. Bu albatta, o'z o'zidan turizmni rivojlantirishga katt hissa bo'la oladi. Bizani ham filmlarda, seryallarda aynan shu usulda foydalanilsa yani kadrlar orqali tarixiy binolarimizni ko'rsatib, berilsa, shuningdek, tabiatni rang barangligini yoritib bera olishsa eng katta yutug'imiz hisoblanadi aslida. Turizmni rivojlantirish uchun reklama ham katta ro'l o'ynaydi. Masalan, reklama orqali yurtimiz mevalarini tabiatini va go'zal manzarasi-yu tarixiy obidalarini videorolik orqali boshqa davlatlarga ko'rsatishimiz kerak. Hozirda bizni telekanallarda misol uchun, Turkiya davlatini yoritib bera olgan videorolik efirga uzatilmoqda. Ushbu videorolikni ko'rgan inson bevosita Turkiyaga borishni hohlab, qolishi tabiiy. Insonlar shunday aslida, yani ko'zlari bilan ko'rgan narsalarga qiziqadilar va intiladilar. O'zbek xalqi ham shundaydir. Aslida turizmni rivojlantirishni o'zimizdan boshlashimiz lozim. Yani hozirgi kunda ko'plab insonlar o'z yashaydigan yeridan shahridan tashqariga chiqmaganlar. O'ziga yurtga borishdan sayohat qilishdan avval, inson o'z vatanini go'zalliklaridan baxramand bo'lishi kerak. Ayniqsa, u O'zbekistondek janntamakon yerda yashasa. Bizni bu buyuk obidalarimizni ko'rish uchun hattoki dunyoning narigi chekkasidan millonlab sayyohlar keladilar. Va kelganlari uchun aslo afsus chekmaydilar. O'zbekistonda juda ko'plab tarixiy obidalar bor. Ular orasida qadimgi shaharlardan tortib, buyuk saltanatlar davrida qurilgan me'moriy yodgorliklargacha mavjud.

Masalan bunga misol tariqasida birgina Samarqanddagi Registon maydonini oladigan bo'lsak, uning turizm rivojlanishidagi ahamiyati juda kattadir.

Samarqand — O‘zbekistonning eng qadimiy va mashhur shaharlaridan biri bo‘lib, uning tarixiy obidalarini jahon sayyohlari uchun katta qiziqish uyg‘otadi. Bu shahardagi eng muhim turistik ob'ektlardan biri Registon maydoni bo‘lib, u nafaqat shaharning, balki butun O‘zbekistonning madaniy merosi timsoli sanaladi. Registon maydoni XV-XVII asrlarda shakllangan bo‘lib, u uchta ulkan madrasa – Ulug‘bek madrasasi (1417-1420), Sherdor madrasasi (1619-1636) va Tillaqori madrasasi (1646-1660) bilan mashhur. Bu me'moriy majmua Sharq me'morchiligining eng mukammal namunasi.

Maydoning o‘zi qadimda shaharning savdo va madaniyat markazi bo‘lgan. Bu yerda yirik bozorlar, xalq yig‘ilishi va turli tadbirlar o‘tkazilgan. Hozirda esa u turistik nuqtai nazardan O‘zbekistonning eng mashhur ob'ektlaridan biriga aylangan. Registon maydoni O‘zbekistonning eng mashhur ramzlaridan biri bo‘lib, mamlakatning xalqaro sayyohlik ko‘rgazmalaridagi asosiy yuzi hisoblanadi. Samarqandga kelgan har bir sayyoh albatta bu majmuani ziyorat qiladi, bu esa shahar va mamlakat uchun katta iqtisodiy ahamiyatga ega.

Registon maydoni nafaqat tarixiy, balki ma'naviy ahamiyatga ham ega. U yerda joylashgan madrasalar asrlar davomida islomiy bilim markazlari sifatida faoliyat yuritgan. Hozirda bu yerda madaniy festivallar, kontsertlar va xalqaro anjumanlar tashkil etiladi. Registon maydoni yonida yangi mehmonxonalar, restoranlar va servis markazlari ochilmoqda.

Registon maydoni YuNESKOning Jahon madaniy merosi ro‘yxatiga kiritilgan. Bu esa uning xalqaro nufuzini oshiradi va ko‘proq sayyohlar jalb qiladi. Registon maydoni atrofidagi turizm infratuzilmasini yaxshilash orqali Registon maydoni atrofida xorijiy sayyohlar uchun mos keladigan ko‘plab mehmonxonalar faoliyat yuritmoqda. Restoranlar va milliy oshxonalar turistlar uchun katta qiziqish uyg‘otadi. Registon yaqinidagi milliy restoranlar sayyohlarga o‘zbek taomlaridan bahra olish imkonini beradi. Bundan tashqari suvenir bozorlari kengaydi. Registon maydoni atrofidagi bozorlar va hunarmandchilik markazlari mahalliy mahsulotlarni sotib olish uchun ajoyib joy hisoblanadi. Registon maydoni nafaqat Samarqand, balki butun O‘zbekiston uchun muhim turistik markaz hisoblanadi. Uning rivojlanishi mamlakatga ko‘proq sayyohlar jalb etish, iqtisodiy o‘sish va madaniy merosni asrab-

avaylashga xizmat qiladi. Turizm sohasidagi investitsiyalar va infratuzilmani yaxshilash orqali Registon maydoni kelajakda dunyodagi eng mashhur turistik joylardan biriga aylanishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, Turizmning kelajakdagi rivojlanishi raqamli texnologiyalar, barqaror rivojlanish va yangi sayohat yo'nalishlarini o'z ichiga oladi. Mamlakatlar bu sohada innovatsiyalarni joriy etsa, iqtisodiy o'sishga erishish va xalqaro sayyohlar oqimini oshirish mumkin. Turizm infratuzilmasini yaxshilash va yangi xizmat turlarini rivojlantirish esa uning uzoq muddatli muvaffaqiyatini ta'minlaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Aliyev, Sh. Turizm industriyasining iqtisodiy ahamiyati. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2022.
2. Bekmurodov, J. O'zbekistonda turizm rivojlanishi va istiqbollari. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2021.
3. Karimov, O. Zamonaviy turizm va uning rivojlanish tendentsiyalari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020.
4. O'zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi. O'zbekistonda turizmni rivojlantirish strategiyasi – 2030.